“CHOLIQUSHI” ROMANIDA BOSH QAHRAMON RUHIYATI VA BADIIY PSIXOLOGIZM

Abdullayeva Sevinch O‘mirbek qizi

ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi) 1-kurs magistranti

abdullaevasevinc164@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.b.f.d., dotsent **Rasulova Sarvinoz Sadatovna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” romanidagi bosh qahramon portreti, ruhiyati, kechinmalari va ba’zi travmalarining shakllanish jarayonlari tahlilga tortiladi. Romandagi psixologik qatlamlar badiiy tasvir vositalari orqali qanday ochib berilgani, ichki konfliktlar adabiyotshunoslik metodologiyasi, xususan, psixologik metod asosida izohlanadi. Ushbu kichik tadqiqot natijalari personajlar ongidagi turli ziddiyatlar hamda ularning estetik ta’siri orasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Shuningdek, roman matniga va psixologik bilimlarga tayanilgan holda Farida obraziga ijtimoiy-maishiy muhit ta’sirining nazariy yondashuvlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar. Ruhiyat, psixologik realizm, psixoanalitik nazariya, psixologizm, empatiya, psixologik portret, dinamika, ichki konflikt, syujet tizimi.

Аннотация. В данной статье проводится анализ портрета, внутреннего мира, переживаний и некоторых травматических процессов формирования главной героини романа Решада Нури Гюнтекина «Птичка певчая». Рассматривается, каким образом психологические слои произведения раскрываются посредством художественных средств выразительности, а также даётся интерпретация внутренних конфликтов с опорой на методологию литературоведения, в частности — на психологический метод. Результаты данного небольшого исследования позволяют выявить взаимосвязь между различными противоречиями в сознании персонажей и их эстетическим воздействием. Кроме того, на основе текста романа и психологических знаний представлены теоретические подходы к влиянию социально-бытовой среды на образ Фериде.

Ключевые слова. Психика, психологический реализм, психоаналитическая теория, психологизм, эмпатия, психологический портрет, динамика, внутренний конфликт, система сюжета.

Abstract. This article examines the character portrayal, psychological states, experiences and the formation of the certain traumas in Rashad Nuri Guntekin’s novel ‘Chalikushi’. It analyzes how the psychological layers of the novel are revealed through artistic devices and interprets internal conflicts on the basis of literary-critical methodology. The findings of this study elucidate the relationship between the diverse contradictions within the characters’ consciousness and their aesthetic impact. Additionally, relying on the text and psychological approaches, the article outlines theoretical perspectives on the influence of the socio-cultural environment on Farida’s character.

Key words. Psyche, psychological realism, psychoanalytic theory, psychologism, empathy, psychological portrait, dynamics, internal conflict, plot system.

Rashod Nuri Guntekin ijodi turkiy xalqlar adabiyotida inson ruhiyati va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib bera olgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ijodkor asarlarining ko‘p tadqiqotchilari ta’kidlashicha, yozuvchi badiiy matnda psixologik realizmni ustuvor tamoyil sifatida qo‘llab, shaxsning ichki kechinmalari, axloqiy tomonlari va ijtimoiy bosimlar ta’siridagi xatti-harakatlarini markazga olib chiqadi. Ayniqsa,

Guntekin asarlarida bolalik davri shaxsiyatning poydevori sifatida ko‘rsatilib, bu muhim bosqichdagi ruhiy jarayonlar keyingi hayot qarorlarini belgilovchi asosiy omil sifatida baholanadi. Psixologiyaga nazar tashlansa, psixoanalitik va rivojlanish psixologiyasi bo‘yicha bolalik inson ruhiyatining eng sezgir va asosiy belgilovchi bosqichi sifatida qayd etiladi. Chunki bu davrda ishonch, mustaqillik, jasorat, tashabbuskorlik kabi sifatlar shakllanadi. Ushbu jarayonlarning badiiy ifodasi esa adabiy psixologizmning markaziy masalalaridan biridir. Rashod Nuri Guntekin ham psixologik realizmni aks ettirarkan, asarlarida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni uning bolalik tajribasi bilan bog‘liq holda yoritadi. Tahlilga yondashishda bolalik davriga urg‘u berilayotgani sababi shuki, asar qahramonlarining voqealar rivoji davomida qarshilashib boradigan nuqtalar bevosita yoki bilvosita boshlang‘ich davr ruhiyati, tarbiyasi va fikrlashi bilan bog‘liq.

Bir qarashda oddiy bir sevgi hikoyasidek tuyuladigan “Choliqushi” romani, aslida, insonning sarhadsiz kechinmalari, qalb og‘riqlari va shu navbatda kundalik hayotga oid boy material, unga qaratilgan ba’zi teran tanqidlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu singari jihatlar romanni mazmunan boyitib, uning murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishini mustahkamlaydi. Guntekinning “Tamg‘a”, “Oqshom quyoshi” kabi romanlarida bo‘lganidek, ulardan oldin maydonga kelgan “Choliqushi”da ham markazga intiluvchi, boshqalar hayratiga sazovor bo‘lishni istovchi qahramonlar mavjud. Bu qahramonlarning atrofdagilar bilan hamdardlik (empatiya) o‘rnatishdagi ojizligi, asosan, nosog‘lom bolalik tajribalari hamda yetarli darajada mehr va e’tibor ko‘rsatmagan ota-ona munosabatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun ham bu romanni faqatgina mungli bir sevgi hikoyasi sifatida baholash uning birgina jihatini ko‘rsatadi, xolos.

Romanning ilk qismida xasta onasini juda erta yo‘qotgan va askar otasidan uzoqda qolishga majbur bo‘lgan kichik yoshdagi qizcha – Faridaning xotiralari ko‘rsatiladi: “Otam u mahallar Musulda xizmat qilar ekan. Men ikki yarim yoshlar chamasida ekanman. …Onam menga qaray olmaydigan ahvolda qattiq kasal ekan. Shuning uchun ancha vaqtlargacha qarovsiz qolibman. Oylab xizmatkorlar uyida sarson bo‘libman. Keyin qishloqlarning biridan Fotima degan kimsasiz bir arab xotinni topishgan. Fotima meni yangigina o‘lgan chaqalog‘i o‘rnida ko‘rib, undan qolgan siynasi bilan onalik mehrini menga beribdi” (Guntekin, 2018, 7-b.). Faridaning shu nuqtalardagi hislari kimnidir qaramog‘ida bo‘lmaslik, panohiga olinmaslik u qo‘llagan zamon qo‘shimchalaridan ham anglashiladi. Bular o‘zi eslab aytilayotgan emas, balki keyinchalik unga qarata aytilgan, singdirilgan xotiralardir. Lekin xuddi shu qismda yana bir xotiraga duch kelinadi: “Fotimaning burnidan, betlaridan, qo‘llaridan g‘urralar arimas edi. Men bu xil g‘urralarga shunchalik odatlanib qolgan edimki, g‘urrasiz yuzlar menga hamisha xunuk ko‘rinardi. Mening uchun eng katta motam Fotimadan ajralishim bo‘ldi. …Enagamning kelin bo‘lgani, go‘shangaga kirgani bugungiday ko‘z o‘ngimda” (Guntekin, 2018, 8-b.). Endi bu yerda Farida o‘z tajribalari bilan ko‘rganlarini, bir ona o‘rnida bo‘lgan Fotimadan ayrilish voqeasini aniq-tiniq ifodalaydi. Onasi kasalligi tufayli Faridaga onalik qilolmagani uchun u Fotima va Husayn qarovida yuradi va ularga bog‘lanadi. Onasi vafot etganida 6 yoshda bo ‘lgan va bu yoshdagi bolaning ancha narsaga aqli yetishi kerakligini o‘zi ham tasdiqlagan Farida negadir onasining o‘limidan bir narsa sezolmaydi, ammo 4 yoshdaligida Fotimadan ayrilishining motamini ochlik e’lon qilib tutadi. Birinchi va ikkinchi holat orasidagi vaziyat munosabatlarning qanchalik chuqur ekani bilan farqlanadi. Biologik onasi, aslida, Farida uchun onalik qilmagan, yana ham to‘g‘risi, qila olmagan, uning o‘rnini Fotima va Husayn kabi kishilar to‘ldirgandilar. Ammo bolaligida tez-tez o‘zgargan bu “onalar”, ulardan ayrilishlar Faridaning kelgusi hayotidagi munosabatlariga ta’sir qilganini unutmaslik kerak. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, psixoanaliz nazariyasiga ko‘ra, sog‘lom shaxsning shakllanishi uchun go‘daklik va erta bolalik davrida ota-ona bilan o‘rnatilgan sog‘lom munosabat muhim hisoblanadi. Bolaning sog‘lom va barkamol voyaga yetishi uchun hayotining dastlabki uch yili davomida unga g‘amxo‘rlik

qiluvchi ota-onadan yetarli darajada mehr, iliqlik va himoya olishi nihoyatda zarurdir. Boshqacha aytganda, uning rivojlanishi, o‘zini tushunishi uchun uni har qanday sharoitda sevib, unga zarur bo‘lgan g‘amxo‘rlikni qilish, ehtiyojlarini chuqur his eta olish, hamdard bo‘lish katta ahamiyat kasb etadi. Romanga qaytsak, Husayn Faridani otasining buyrug‘i bilan buvisinikiga olib borib, u bilan xayrlashishga majbur bo‘ladi. Farida esa endi bu hasratga, vidolashishga bo‘lgan reaksiyasi – xafalik, g‘azabni avvaliga tashqariga chiqarishga harakat qiladi. Yaramasliklar qilib, qarindosh bolalarni uradi. Shu yo‘l bilan mitti jussasiga sig‘gan ta’sirchan qalbidagi og‘riqni boshqalarga ozor berib yengillatishga oshiqadi. Fotimadan keyin yana bir bor o‘xshash iztirobni chekish bilan qarshilashgan Farida azob chekishdan qochish uchun bolalarcha sevgisining obyekti bo‘lgan Husaynga aloqador hislarini qadrsizlantirishi, uni haqoratlashi qaysidir ma’noda himoya mexanizmidek taassurot uyg‘otadi.

Yuqoridagi fikrlardan birida romanga sevgi afsonasi deya qarash, baho berish biroz tor doiradagi talqin ekani aytib o‘tilgan edi. Bu haqiqat, biroq boshqa jihatlarga chuqur yondashilgani holda, muhabbatdan ko‘z yumib ketish ham xato bo‘ladi, albatta. Chunki muhabbat – boqiy tuyg‘u va shu bilan birga umuminsoniy mavzu hamdir. Bolalik hodisalari Farida bilan Kamron o‘rtasidagi munosabatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va romanda Farida Istanbuldan Anadoluga yo‘l olguniga qadar go‘yo bir bola sifatida tasvirlanadi. “Choliqushi” asarini bolalikka qilingan ishoralarga e’tibor qaratgan holda o‘qish va uqish esa Faridaning go‘yo ulg‘aya olmayotgan qahramon ekanini ochib beradi. Qahramonning sho‘xliklari va qiliqlari sababli u nafaqat xolalari, balki Kamron tomonidan ham qayta-qayta tanbeh eshitadi. Kattalar davrasida bo‘lish va o‘zini ular kabi tutish uning uchun begona, o‘ziga yot holat bo‘lib tuyuladi. Hatto atrofidagilar uni voyaga yetgan yosh qiz sifatida ko‘ra boshlagan paytlarda ham u bolalarni atrofiga yig‘ib, ular bilan o‘ynashda davom etadi. Hech ulg‘aymayotgandek tuyulgan bu qizaloqning muhabbatni ham bolalarga xos sodda va o‘yin tusidagi bir tajriba sifatida boshdan kechirishi, shu bilan birga Kamronning bu munosabatda Faridaning mutlaqo aksi sifatida tasvirlanishi alohida e’tibor talab etadi. Rashod Nuri Guntekinning boshqa romanlarida bo‘lgani kabi “Choliqushi” romanida ham ulg‘aya olmaslik holati Farida bilan Kamron o‘rtasida rivojlanadigan muhabbatning tabiatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ikki qahramon o‘rtasidagi sevgi rishtasining shakllanishi va tezlashish jarayoni tahlil qilinganda bu masala yanada ravshanlashadi. Farida bilan Kamron o‘rtasidagi ichki taranglikning muhabbatga aylanishida esa Faridaning maktabdagi qizlar orasida o‘ynagan roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Voqealar rivoji davomida sevishganlar ayriladilar, ularning keyingi uchrashuvi esa g‘urbatga ro‘baro‘ bo‘lib, hayot sinovlaridan o‘tib, “yetilish”dan so‘ng ro‘y beradi. Bu yerda kamolga yetish uchun yurt kezish, hijron va iztirobni boshdan kechirish zarurligi ta’kidlanadi. Ammo bu asarda ertak va afsonalardagidan farqli ravishda g‘urbat yo‘liga otlanib, sevgilisi izidan boradigan yoki undan qochadigan erkak emas, balki ayoldir. U o‘z dardlarini va kechinmalarini qo‘liga soz olib kuylab, doimiy shikoyat tarzida ifoda etmaydi, aksincha, ularni xotira daftariga bitadi. U o‘z iztiroblarigagina berilib ketmay, ko‘proq atrofidagilar taqdiriga, ularning dard-u quvonchlariga ham e’tibor qaratadi. Faridaning psixologik portreti kalitlari uning bolaligida yashiringan. Og‘ir bolalik kechirgan Farida ijtimoiy me’yorlar ta’sirida go‘yo erkaklarga xos “zirh”ni kiyib, hayot yo‘lidan o‘tishni tanlaydi. O‘sha davr sharoitida uning o‘qituvchilik kasbini tanlashi ham buning yaqqol isboti. Mavjud bo‘lish uchun kurashishga majbur bo‘lgan Farida o‘zligini bolaligidan boshlab erkaksimon xatti-harakatlar orqali namoyon etadi. Uning sho‘xligi, yaramasligi, hazil-mutoyibaga moyilligi, tengdosh qizlardan farq qiluvchi xulqi bejiz emas. Darhaqiqat, u Kamronga hazil aralash o‘zining erkak, uning esa qiz bo‘lib tug‘ilgani ma’qul bo‘lishini aytganida ham ularning o‘rtasidagi muhabbat dinamikasida Faridaning erkaklarga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Harbiy xizmatchi Husayn qo‘lida tarbiya topgan, qo‘pol o‘yinlar o‘ynab ulg‘aygan, tez-tez harbiy qismga borib, askarlar orasida go‘yo bir

o‘g‘il bola kabi voyaga yetgan Faridaning shu erkaklarga xos kimligi bu yerda faol rol o‘ynaydi. Faridaning tabiatan erkaksimon roli bilan Kamronning sustroq, orqaroqda qolgan erkaklik pozitsiyasi to‘qnashib, unda chuqur umidsizlik uyg‘otadi. Bu holatni ichki konflikt sifatida ham talqin qilish mumkin. Xiyonatga uchragach yuzlashish o‘rniga qochishni tanlagan Farida, aslida, o‘zini jazolaydi. Bolaligidan his-tuyg‘ularini erkin ifodalashda qiynalgan bu qiz uchun najot – muammolardan ham, o‘zidan ham qochish. Kamrondan uzoqda o‘tgan yillar davomida u qalbida o‘stirgan ishq iztirobi orqali asta-sekin ulg‘ayadi. Keyinchalik unga qarshi uyushtirilgan fitnalardan qochmay, ularga qarshi turishiga aynan shu dard orqali ma’nan yetilish jarayonida boshdan kechirgan ishq azobi va pushaymonliklari zamin yaratadi. Hayot sinovlaridan o‘tayotgan Farida ortga qaytgach, endi yetuk ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Uni qochishga majbur qilgan ham, kamolga yetkazgan ham aynan muhabbatdir. Farida o‘qituvchilik faoliyati bilan Anadolu sari yo‘l olganida, o‘z “men”ini anglashning eng yuqori bosqichiga yetadi. Xiyonat va ayriliq sabab bir-biridan ayrilgan bu ikki qalb egasining o‘z-o‘zinini va bir-birini yana qayta topishi ham aynan muhabbatning tortishish kuchi bilan yuz beradi.

Rashod Nuri Guntekin murakkab va to‘lqinli sevgi sarguzashtini tasvirlagan “Choliqushi” romani keng kitobxonlar ommasiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan, avlodlar davomida sevib o‘qilgan, teleseriallarga moslashtirilgan hamda turli tillarga tarjima qilingan asardir. Yosh qizning romantik muhabbatini markaziy g‘oya sifatida olgan bu roman sevgi mavzusi atrofida murakkab va diqqatga sazovor syujet tizimini barpo etgan. Qahramonlar kayfiyatiga mos tushgan tasvirlar, peyzajlar orqali ta’sir qila olish funksiyasini yanada oshirgan. Eng muhimi, muallif asarda birin-ketin namoyon bo‘lgan, qahramonlarni o‘z bag‘rida ulg‘aytirib qo‘ygan ichki iztiroblar bilan tanish bo‘lgan, buning aksi bo‘lgan taqdirda asarning ta’sir doirasi nihoyatda past bo‘lgan bo‘lar, faqat ma’lum muddatgina yashagan bo‘lardi. Ijod namunasi uzoq umr ko‘rishi uchun bevosita tajribadan o‘tgan yoki kuzatilgan, o‘rganilgan bo‘lishi zarur. Ijodkor asarga manba bo‘lib xizmat qilgan hayot materialini kuzatmas ekan, unga o‘qirmanlarning ishonishi narida tursin, hatto o‘zining ishonishi ham shubhalidir. Guntekinda esa tasvirlarning ishonchliligi asarning o‘qilishini ta’minlagan xususiyatlardan sanaladi. Romanda original tasvirlari keltirilgan ko‘chalar, dalalar, qishloqlar muallifning bevosita kuzatishlariga asoslanganiga dalildir. Shu o‘rinda mahoratli va o‘z uslubiga ega rus shoiri va adibi, ilk rus Nobel mukofoti sovrindori Ivan Buninning ijod laboratoriyasiga oid prinsiplarini eslash bilan ular turkiy xalqlar adabiyotining zabardast vakili Rashod Nuri Guntekin uchun ham taalluqli ekanini ko‘ramiz. Ya’ni o‘z asarlarida qishloq haqida so‘zlagan shaharlik yozuvchilar Buninni g‘azablantirgan. Yozuvchining fikricha, ularning ko‘pchiligi umri davomida biror marotaba qishloqqa bormagan va nima haqida yozayotganlarini tushunishmaydi. Bir mashhur shoir qaysidir she’rida bargizub nomli o‘simlik turining gullaganini va undan hayratlanganini bitadi. Vaholanki, bu turdagi o‘simlik gullash xususiyatiga ega emas. Mana, nima uchun ijodkor kuzatuvchi va sayohatchi bo‘lishi lozimligiga oddiy va kichik bir isbot. Guntekin esa “qishloq ko‘rmagan” yozuvchilardan emas. “Choliqushi” romani ham har bir davrda, har bir avlod tomonidan zavq bilan o‘qib kelinayotgan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Выготский, Л. С. (1998). Психология искусства. Издательство «Феникс».
2. Каримов, Б. Н. (2011). Адабиётшунослик методологияси. «Муҳаррир» нашриёти.
3. Kanter, M. F., Karaburgu, O. (2021). Reşat Nüri Güntekin. Kültür ve Türizm Bakanlığı Yayınları.
4. Tanpınar, A. H. (2005). Reşat Nüri ve Eserleri. Edebiyat Üzerine Makaleler. Dergah Yayınları.
5. Фрейд, З. (2024). Введение психоанализ. Издательство «Азбука».